HAMMA VA HAR BIR INSON FAROVONLIGINI TA’MINLASH

Abdusattorov Abdujalil Abduvali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi mudiri

Farg‘onaning qadimiy tuprog‘ida bugun shunchaki binolar qurilmayapti, bu yerda yangi davr odamlarining halol tafakkuri, tabiati yuksalmoqda. Qadoq qo‘llar, peshonalardagi ter, yuzlardagi farishtali samimiyat va ertangi kunga qat’iy ishonch — bularning barchasi yaxlitlashib, chinakam yangi O‘zbekistonning urib turgan ishtiyoqmand yuragiga aylanmoqda.

Qadimiy va navqiron Marg‘ilon... Bu shaharga qadam qo‘yishi bilan inson vujudida ajib bir hissiyot uyg‘onadi. Aynan shu yerda, 35 gektar maydonda qad rostlagan Burhoniddin Marg‘inoniy ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi qalbimizni ayricha tarzda titratib yubordi. Qiymati 1,7 trillion so‘mlik bu mo‘jaz shaharcha faqatgina inshootlar to‘plami emas, o‘tmish bilan bugunning yuzlashuvi go‘yo. Farg‘ona... Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”sida uning atrofi tog‘lar bilan o‘ralgani, feruza konlari, iqlimi, suvlari, shaharlari va mashhur kishilari haqida ishonchli bayon qiladi. “Muxtasar viloyatdur, oshliq va mevasi farovon”, deydi.

Respublikamiz Prezidentining joriy yil 27-28-aprel kunlari viloyatga tashrifi doirasida belgilab berilgan vazifalar, amalga oshirilgan hamda jarayondagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar silsilasida Farg‘ona shahriga ham tegishli fikrlarni bayon etdilar. Xalq farovonligi yo‘lida olib borilayotgan ishlar qurilishlar, barcha soxada yangilanishiga alohida baho berdilar. Ushbu yangiliklarga nazar solganda shahar bag‘rida qad rostlagan zamonaviy majmua — Farg‘ona shahridagi AT parkni alohida ko‘rsatishi mumkin. Davlatimiz rahbarining 2024-yil avgust oyidagi tashrifi chog‘ida berilgan topshiriqlar asosida barpo etilgan bu salobatli inshoot ichiga qadam qo‘yishingiz bilan mutlaqo boshqa aql o‘lchamiga tushib qolgandek bo‘lasiz. Bir vaqtning o‘zida 200 yigit-qizni bag‘riga chorlaydigan ayni dargohda raqamli olam asrorlarini o‘zlashtirayotgan yoshlar mehnat qilib, mo‘jiza yaratmoqdalar.

Tasavvur qiling: yiliga 3 mingdan ortiq yoshni o‘qitish, g‘oyadan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonlarga jalb etish uchun yaratilgan bu zamonaviy kovorking markazida mehnat qaynay boshlaydi. Aslida, oxirgi yillarda viloyat miqyosida AT xizmatlar hajmi to‘rt barobar o‘sib, eksport 23 million dollardan oshgani ham Farg‘ona yoshlarining uylarida o‘tirib dunyo bozorini zabt etayotganining amaldagi isboti. Hozir 139 ta rezident kompaniyaga ega bo‘lgan bu maskan 2025-yilda 22,7 million dollarlik xizmatlarni eksport qilishga ulgurdi. Kelgusida rezidentlar sonini 200 taga, eksport hajmini esa 30 million dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Sun’iy intellekt xabi, venchur fondlar, akseleratsiya dasturlari... Bularning barchasi Farg‘onaning ertangi kuni faqatgina ekin-tikin, og‘ir sanoatdan emas, balki intellektual salohiyatdan ham suv ichishini kafolatlaydi.

Yana bir yangi yo‘nalish sarmoyalar va g‘oyalar uchrashadigan manzil — Investorlarga xizmat ko‘rsatish markazi alohida axamiyat kasb etadi. Besh gektar maydonni egallagan “Farg‘ona ekspo” majmuasi bir qaraganda qadimiy Ipak yo‘lidagi karvonsaroylarning zamonaviy, muhtasham ko‘rinishi o‘laroq taassurot qoldiradi. Sakkiz qavatli inshoot faqatgina ko‘rgazma zali emas, g‘oyalar pulga, sarmoyalar esa real zavodlarga aylanadigan o‘ziga xos inkubatordir. 200 dan ortiq ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini namoyish etayotgan bu joyda davlat idoralari, tadbirkorlar va xorijiy investorlar bir stolda o‘tirib, Farg‘onaning ertangi iqtisodiyotini belgilab bermoqda..

Yurtimizda san’at va madaniyatga bo‘lgan qiziqish azaldan an’ana sifatida ulug‘lanib kelgan. Farg‘ona viloyati aholisi Respublikamiz viloyatlar ichida eng ko‘p zich aholilardan ekanligi barchamizga ayondir. Viloyatimizda yoshlar ko‘p, madaniyat, san’atga qiziqadigan oilalar serob. Farg‘ona viloyatidan bo‘lib, Respublikamizda ijodiy salohiyati orqali o‘zining nomini qoldirgan atoqli Xonandalar, mohir sozandalar, buyuk bastakorlar, olim musiqashunoslar yetishib chiqqan. Bu borada Farg‘ona shahri alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni ana shu e’tibor va ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, o‘zining ko‘p yillik samarali ilmiy-ijodiy faoliyati, yorqin va betakror iste’dodi, milliy san’atimiz va ma’naviyatimiz ravnaqiga qo‘shgan munosib hissasi bilan xalqimiz

hurmatiga sazovor bo‘lgan bir qator farg‘onalik ijodkor va madaniyat sohasi vakillari yuksak davlat mukofotlari hamda faxriy unvonlar bilan taqdirlandilar. Bundan Farg‘ona shahrida istiqomat qilayotgan madaniyat va san’at namoyondalari ham mustasno emas.

Bugungi kunda Farg‘ona shahrida 3ta teatr, o‘ndan ortiq madaniyat markazlari faoliyat olib bormoqda. Minglab yoshlar o‘zlarining madaniy saviyasi oshirmoqdalar.

Barcha viloyat tashkilotlari Farg‘ona shahrida joylashganligi ham birinchi navbatda shahar aholisining farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir.

Farg‘ona shahrida joylashgan oliy o‘quv yurtlarida, maxsus bilim yurtlarida o‘n minglab yosh talabalar bilim olmoqdalar. Ular albatta kelajakka xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qiladigan kasbiy yo‘nalishlarni egallab, sidqidildan faoliyat olib boradilar. Bugun ushbu mukofotlar orqali milliy madaniyatimiz, asriy qadriyatlarimiz va boy ma’naviy merosimizni asrab-avaylash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish yo‘lida xizmat qilayotgan fidoyi insonlarning mehnati yuksak qadrlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlod qalbida san’atga muhabbat, Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

2023–2026-yillarda Farg‘ona shahrida 1 ming 521 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslar va ehtiyojmand fuqarolar vaucher tizimi orqali protez-ortopediya moslamalari hamda reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta’minlanishiga erishildi. Buning uchun qariyb 2,8 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevral kungi “Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-88-son Qarori dasturilamal bo‘ldi.

Jumladan, joriy yilda 110 nafar nogironligi bo‘lgan shaxsga protez-ortopediya moslamalari va 145 nafar ehtiyojmand fuqaroga reabilitatsiya qilishning texnik vositalari yetkazib berildi.

Ta’kidlash lozim, 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarda 149 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslar protez-ortopediya moslamalari bilan, 606 nafar ehtiyojmand esa reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa: Hamma va har bir inson farovonligini ta’minlash — shunchaki iqtisodiy dastur emas. Bu — mamlakatdagi eng chekka qishloqda yashayotgan oddiy fuqaroning ham o‘z davlatidan rozi bo‘lib, “Bu mening Vatanim, bu yerda men qadrliman”, deb shukronalik bilan yashashini ta’minlashga qaratilgan umummilliy harakatdir.

Farg‘onaning qadimiy tuprog‘ida bugun shunchaki binolar qurilmayapti, bu yerda yangi davr odamlarining halol tafakkuri, tabiati yuksalmoqda. Qadoq qo‘llar, peshonalardagi ter, yuzlardagi farishtali samimiyat va ertangi kunga qat’iy ishonch — bularning barchasi yaxlitlashib, chinakam yangi O‘zbekistonning urib turgan ishtiyoqmand yuragiga aylanmoqda. Buni shunchaki aql bilan anglab bo‘lmaydi. Buni shu shamoldan nafas olib, shu xalqning ko‘zlariga boqib, faqatgina yurak orqali his qilish mumkin. Farg‘ona gullamoqda. Farg‘ona yuksalmoqda. Bu yuksalish bizning — barchamizning mushtarak yorug‘ kunlarimizdan darak beradi deb ishonamiz.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. [Асафьев Б. В. Избр. статьи о музыкальном просвещении и образовании. М.—Л., 1965.].
2. [Апраксина О. А: Современные требования к школьному учителю-музыканту. — В кн.: Музыкальное воспитание в школе. Вып. 15. М,, 1982.].
3. Yangi o‘zbekiston gazetasi 4.05.2026
4. Yangi o‘zbekiston gazetasi 5.05.2026